


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
Olmaliq filiali



Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida
iqtidorli talabalar uchun “TechnoWays” texnologik rivojlanish
marafonini o‘tkazish to‘g‘risida

N I Z O M

Olmaliq-2023



TASDIQLAYMAN

TDTU Olmaliq filiali direktori

A. Samadov

dehabr. 2023-yil

**“TechnoWays” texnologik rivojlanish marafonini o‘tkazish
tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Tanoov O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorining 1-ilovasi 38-bandi va Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagi 351-son buyrug‘i 1-bandida keltirilgan chora-tadbirlar yuzasidan **“TechnoWays”** texnologik rivojlanish marafoni (keyingi o‘rinlarda - Marafon) tashkil etish hamda oliy ta‘lim muassasalari bosqichini o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Marafon yoshlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini namoyon etish, mazkur sohadagi istiqbolli loyihalarni dastlabki bosqichda aniqlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, tijoratlashtirish darajasiga olib chiqishga va o‘z navbatida, loyihani amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga marafon to‘g‘risidagi Nizom marafon o‘tkazish shartlari, g‘oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Marafonning filial bosqichlari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi Milliy ofisi hamda har bir oliy ta‘lim muassasalari bilan birgalikda tashkil etiladi.

3. Marafon qatnashchilari o‘rtasida ilmiy va innovatsion loyiha yo‘nalishlarida ilmiy-texnik ijodkorlik va ixtirochilikni rag‘batlantirish, innovatsion faollikni oshirish hamda yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

4. Marafonda ishtirok etayotgan qatnashchilarning loyihalarini baholash va g‘oliblarni aniqlash uchun tegishli soha mutaxassislaridan iborat, besh kishidan kam bo‘lmagan tarkibdagi Marafon komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) tuziladi hamda Komissiya kotibi aniqlanadi.

5. Marafonning filial bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni filialning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

II. Marafonni o‘tkazish tartibi, muddatlari va shartlari

6. Marafonda ishtirok etuvchi yoshlarni aniqlash maqsadida TDTU Olmaliq filialining ijtimoiy (<https://t.me/TDTUOFUZ>) telegram veb saytida e‘lon berilib, 7 kun davomida ishtirokchilar ro‘yxatga olinadi.

7. Marafon ishtirokchilari ro‘yxatdan o‘tishda aniq bir muammo yoki mavjud potensial imkoniyatdan kelib chiqqan holda innovatsion xarakterga ega g‘oya yoki loyihani taklif etishlari lozim.

8. Marafonda ishtirok etmoqchi bo'lgan talaba-yoshlar yakka o'zi yoki ko'pi bilan uch nafar talaba yoshlardan iborat jamoa bo'lib ro'yxatdan o'tishlari mumkin.

9. Marafon quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Rasmiy ochilish marosimi – 1-kun;
- Seminar treyninglar – 1-2-kunlar;
- Loyihalarni shakllantirish va rivojlantirish davri – 3-10-kunlar;
- Loyihalar taqdimoti – 11-12-kunlar;
- Yopilish marosimi va g'oliblarni taqdirlash – 13-kun.

10. Rasmiy ochilish marosimi – TDTU Olmaliq filiali bosh binosi, “Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar” fakultetida tashkil etiladi. Unda filial rahbariyati, talaba yoshlar va Marafon ishtirokchilari qatnashadi. Ochilish marosimida Marafon ishtirokchilariga Marafonni o'tkazish tartiblari, loyihalarni baholash mezonlari, g'oliblarni rag'batlantirish to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

11. Seminar treyninglar – Marafon ishtirokchilari uchun tashkil etiladigan o'quv dasturi hisoblanadi. Unda filialda ilmiy tadqiqot va innovatsion sohada faoliyat olib boruvchi o'qituvchi yoki boshqa mutaxassislar yordamida Marafon ishtirokchilariga quyidagi mavzular bo'yicha seminar treyninglar o'tiladi:

- Ilmiy unvon va ilmiy darajalar to'g'risida ma'lumot va ularni olish tartiblari;

- Ilmiy va innovatsion loyihalarni shakllantirish va moliyalashtirish tartiblari;

- Startup loyihalarni shakllantirish va moliyalashtirish tartiblari;

- Loyihalarni xarajatlar smetasini shakllantirish tartiblari;

- “Bo'lajak olim” tanlovi va “Akademik harakatchanlik” dasturi nizomlari.

12. Loyihalarni shakllantirish va rivojlantirish davri – Marafon ishtirokchilari o'z loyihalarini rivojlantirish va loyiha hujjatlarini shakllantirishlari uchun 8 kun vaqt beriladi. Mazkur davrda ishtirokchilar o'z loyihalarini rivojlantirish ustida ishlaydilar, loyihalarga qo'shimcha yangiliklar va funksiyalar kiritadilar. Mazkur nizomning 1-2-3-illovalariga muvofiq o'z loyihalarining hujjatlarini shakllantiradilar.

13. Loyihalar taqdimoti – Marafonning har bir ishtirokchisi o'z loyihalarini Komissiya a'zolariga taqdimot qilishadi. Har bir ishtirokchiga taqdimot qilish uchun 5 daqiqa vaqt, savol-javoblar uchun qo'shimcha 2 daqiqa vaqt beriladi. Loyihalarni baholash mazkur nizomning 4-illovasida ko'rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Loyihalar taqdimoti jarayonida Komissiya kotibi tomonidan Komissiya bayoni yuritiladi. Loyihalar taqdimoti yakunida Komissiyaning har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi.

14. Yopilish marosimi va g'oliblarni taqdirlash – Marafon ishtirokchilarining loyihalarini baholash natijasida eng yuqori natija ko'rsatgan 3 ta loyiha filialda tashkil etilgan Marafon g'oliblari deb e'lon qilinadi.

15. Marafon ishtirokchilari, Komissiya a'zolari, Komissiya a'zolarining qo'yg'an ballari, Marafon g'oliblari va ularning ishlanmalari to'g'risidagi

ma'lumotlar Komissiyasining bayonida ko'rsatiladi hamda a'zolari tomonidan imzolanadi.

16. Marafon natijalari va g'oliblarini e'lon qilish hamda taqdirlash marosimi Marafonning oxirgi kuni amalga oshiriladi.

17. TDTU Olmaliq filialida Marafon ishtirokchilarini tanlovning talab va shartlari to'g'risida xabardor qilinadi, tanlov yakunlari bo'yicha g'oliblarga xabar beriladi va ularni taqdirlashni tashkil etadi.

III. Ishlanmalarni baholash mezonlari

18. Marafonda ishtirok etish uchun ajratib olingan ishlar quyidagi mezonlar asosida, har bir mezon uchun alohida 10 ballik tizim bo'yicha baholanadi:

- G'oya yoki loyihaning ilmiy va innovatsion yangiligi;
- G'oya yoki loyihaning aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi;
- Mavjud analoglaridan afzalligi;
- Biznes modeli va monetizatsiyasi;
- G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;
- Loyiha taqdimotining mukammalligi;
- Loyiha pasporti, biznes-rejasi va xarajatlar smetasi hujjatlari to'ldirilganligi.

19. Marafon ishtirokchilari Komissiya a'zolariga loyihaning ilmiy va amaliy hamda ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bera olishini namoyish etishi lozim.

20. G'oliblarni aniqlashda baholash jarayoni davomida har bir ishtirokchiga komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtiriladi va komissiya a'zolari soniga bo'linadi. Eng yuqori ball to'plagan 3 nafar ishtirokchi g'olib deb hisoblanadi.

21. Ishtirokchilar tomonidan to'plagan ballar soni bir xil bo'lib qolgan taqdirda, komissiya a'zolari tomonidan ovoz berish usuli bilan g'olib aniqlanadi.

22. Loyihaning ilmiy yangiligini va zamonaviyligini ko'rsatish maqsadida uning analoglari bilan solishtirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni, stendlar yoki boshqa qurilmalarda test va sinovdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot berishlari lozim. Agar ishlanma tanlovda ishtirok etgan yoki patentlangan bo'lsa bu haqda tegishli ma'lumotlar taqdim etiladi.

IV. Tanlov g'oliblarini mukofotlash

23. Marafon yakunlariga ko'ra eng yuqori natijaga ega bo'lib, 1-2-3-o'rinlarni egallagan g'oliblar (jamoalar) quyida ko'rsatilgan miqdordagi pul mukofotlari yoki mazkur qiymatdagi qimmatbaho esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar:

- 1-o'rin – bazaviy stipendiya miqdorining 3(uch) baravari yoki esdalik sovg'alar;
- 2-o'rin – bazaviy stipendiya miqdorining 2(ikki) baravari yoki esdalik sovg'alar;
- 3-o'rin – bazaviy stipendiya miqdorining 1(bir) baravari yoki esdalik sovg'alar;

24. Mukofot Marafonda g'olib bo'lgan loyihalarga, uning mualliflari sonidan qat'iy nazar, belgilangan qiymatda beriladi. Agar jamoa shaklida ishtirok etgan ishtirokchilarning loyihasi g'oliblikni qo'lga kiritisa, jamoa a'zolarining har biriga mukofot summasi teng miqdorlarda taqsimlanadi.

25. Mukofotlash Marafonda g'olib bo'lgan talaba-yoshlarning bank plastik kartochka hisob-raqamlariga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

26. Marafonni g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar filialning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

V. Yakuniy qoidalar

27. Marafonda qatnashish bilan bog'liq xarajatlar marafon ishtirokchisi tomonidan mustaqil ravishda qoplanadi.

28. Marafonning ishchi tili: o'zbek tili

29. Ushbu Nizom, Marafon to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari filialning rasmiy web-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Ishlab chiqdi:

Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'lim boshlig'i

N. Anorboyeva

Kelishildi:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari

B. Djamiyev

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O. Abdiyev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

D. Xoliqulov

Bosh hisobchi

E. Shukurov

Reja - moliya bo'lim boshlig'i

D. Dadajonova